

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOIIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	



O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi

Xalqaro Nordik universiteti

Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi magistranti

ORCID: 0009-0003-3331-0793

E-mail: xoliqovaxurshidaxon2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayonining institutsional muammolari hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida institutsional iqtisodiyot yondashuvi qo'llanilib, investitsiya oqimiga ta'sir etuvchi huquqiy barqarorlik, investor huquqlarini himoya qilish, moliyaviy infratuzilma, axborot shaffofligi hamda davlatning qo'llab-quvvatlovchi roli kabi omillar tizimli ravishda yoritilgan. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosida startaplarni moliyalashtirish jarayonida ventchur kapital bozorining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi, xususiy investorlar faolligining pastligi, risklarni baholash instrumentlari va "exit" strategiyalarining cheklanganligi kabi institutsional to'siqlar aniqlashtirilgan. Tadqiqot natijalari asosida ventchur kapital bozorini chuqurlashtirish, investorlar himoyasini kuchaytirish, hisobot va baholash standartlarini joriy etish, shuningdek, ekotizim aktorlari o'rtasidagi koordinatsiyani mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: startap ekotizimi, investitsiya jalb qilish, institutsional muhit, ventchur kapital, angel investor, investor himoyasi, axborot shaffofligi, risklarni boshqarish, exit strategiyasi, innovatsion infratuzilma.

Abstract. This article analyzes the institutional challenges of attracting investment within the startup ecosystem of Uzbekistan and examines mechanisms for overcoming them. The research is grounded in the institutional economics approach, which allows a systematic analysis of factors influencing investment flows, including legal stability, investor protection, financial infrastructure, information transparency, and the supportive role of the state. Based on the analysis of international and domestic academic sources as well as regulatory documents, several institutional barriers in startup financing were identified, such as insufficient integration of the venture capital market, low activity of private investors, limited risk assessment instruments, and constrained exit strategies. Based on the research findings, practical recommendations were developed to deepen the venture capital market, strengthen investor protection, introduce reporting and valuation standards, and enhance coordination among actors within the startup ecosystem.

Key words: startup ecosystem, investment attraction, institutional environment, venture capital, angel investor, investor protection, information transparency, risk management, exit strategy, innovation infrastructure.

Аннотация. В данной статье анализируются институциональные проблемы привлечения инвестиций в стартап-экосистеме Узбекистана и механизмы их преодоления. В качестве теоретико-методологической основы исследования использован институциональный подход, позволяющий системно рассмотреть факторы, влияющие на инвестиционные потоки, включая правовую стабильность, защиту прав инвесторов, финансовую инфраструктуру, информационную прозрачность и поддерживающую роль государства. На основе анализа зарубежных и отечественных научных источников, а также нормативно-правовых документов выявлены институциональные барьеры в процессе финансирования стартапов, такие как недостаточная интеграция рынка венчурного капитала, низкая активность частных инвесторов, ограниченность инструментов оценки рисков и стратегий выхода («exit»). По результатам исследования разработаны практические рекомендации по углублению рынка венчурного капитала, усилению защиты инвесторов, внедрению стандартов отчетности и оценки, а также укреплению координации между участниками стартап-экосистемы.

Ключевые слова: стартап-экосистема, привлечение инвестиций, институциональная среда, венчурный капитал, бизнес-ангел, защита инвесторов, информационная прозрачность, управление рисками, стратегия выхода, инновационная инфраструктура.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida innovatsion faoliyat va startap tashabbuslari milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish hamda bilimga asoslangan iqtisodiyot modeliga o'tish jarayonida startaplar yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, startap ekotizimining muvaffaqiyatli shakllanishi investitsiya resurslariga kirish imkoniyati, rivojlangan ventur kapital bozori, faol angel investorlar instituti hamda barqaror institutsional muhit bilan bevosita bog'liqdir. Institutsional omillar — huquqiy barqarorlik, investorlar huquqlarining himoyasi, shaffoflik darajasi, moliyaviy infratuzilma va axborot ochiqdigi — investitsiya qarorlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham innovatsion rivojlanish va startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Investitsion munosabatlarni tartibga solishning asosiy huquqiy bazasi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RG-630-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilanadi. Mazkur qonun investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlash, investorlar huquqlarini himoya qilish hamda investitsiya jarayonini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, startaplarni moliyalashtirish jarayoni umumiy investitsiya muhitining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda.

Biroq amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayonida ayrim institutsional masalalar mavjud bo'lib qolmoqda. Xususan, ventur kapital infratuzilmasining rivojlanish darajasi hali yetarli emasligi, xususi investorlar faolligining nisbatan pastligi, investitsiya risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi zarurligi hamda investorlar uchun samarali chiqish ("exit") strategiyalarining cheklanganligi investitsiya oqimlarining barqaror rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, startaplarni baholash bo'yicha yagona metodologik yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmaganligi va moliyaviy vositalarning diversifikatsiya darajasi nisbatan pastligi investitsiya jalb qilish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayonining institutsional jihatlarini kompleks tahlil qilish hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Tadqiqot natijalari innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish hamda milliy startap ekotizimini mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayonining institutsional muammolarini tushunishda institutsional iqtisodiyot nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. D. North iqtisodiy rivojlanish jarayonini rasmiy va norasmiy institutlar bilan bog'liq holda tahlil qilib, institutlarni "o'yin qoidalari" sifatida talqin etadi. Uning fikricha, iqtisodiy faoliyat samaradorligi shartnomalar ijrosi, mulk huquqining himoyasi, huquqiy barqarorlik hamda tranzaksiya xarajatlari darajasiga bevosita bog'liqdir. Startaplar faoliyati yuqori risk va noaniqlik bilan tavsiflanganligi sababli investorlar qaror qabul qilishda aynan institutsional barqarorlik va himoya mexanizmlariga alohida e'tibor qaratadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya jalb qilish jarayonidagi ayrim institutsional kamchiliklar kapital oqimining sekinlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mahalliy ilmiy manbalarda ham investitsiya va innovatsiyalar o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. "Investitsiya va innovatsiyalar" o'quv qo'llanmasida investitsiya jarayoni iqtisodiy o'sishning moliyaviy asosi sifatida ko'rib, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi. Unda risk darajasi yuqori bo'lgan innovatsion loyihalar uchun an'anaviy kredit instrumentlari har doim ham samarali bo'lavermasligi, shu sababli muqobil moliyalashtirish mexanizmlari — jumladan, ventur kapital va xususi investitsiyalar — muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv startap ekotizimida investitsiya jalb qilish muammolarini institutsional va moliyaviy jihatdan kompleks tahlil qilish zarurligini asoslaydi.

Xorijiy dissertatsiyalarda startaplarni moliyalashtirish jarayoni institutsional va huquqiy mexanizmlar orqali tahlil qilinadi. Judit Glavanits tomonidan bajarilgan doktorlik tadqiqotida ventur kapital moliyalashtirishining huquqiy jihatlari chuqur o'rganilib, investorlar huquqlarini himoya qilish, shartnomaviy nazorat mexanizmlari va "exit" strategiyalarining investitsiya muhitiga ta'siri asoslab berilgan. Muallif ventur kapital shartnomalarining tuzilishi, axborot assimetriyasi hamda davlatning bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qiladi. Ushbu yondashuv startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayonidagi institutsional muammolarni huquqiy muhit bilan bog'liq holda baholash imkonini beradi.



Rom Pairsuwan tomonidan amalga oshirilgan doktorlik tadqiqotida esa fan va texnologiya parklarining tadbirkorlik ekotizimidagi roli o'rganilib, ularning innovatsion muhit shakllanishidagi ta'siri empirik intervyular asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ekotizim elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va madaniy omillarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Mahalliy dissertatsiyalarda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlari hamda kichik biznes subyektlarining investitsion jozibadorligini baholash metodologiyasi tahlil qilingan. Amonova N.U. investitsiya manbalarini diversifikatsiyalash va bozor instrumentlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Ro'ziyeva D.I. esa kichik biznes subyektlarining investitsiya faoliyatini baholash indikatorlarini ishlab chiqib, risklarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish mexanizmlarini taklif etadi. Ushbu ilmiy ishlanmalar O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilishning institutsional muammolarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy maqolalar tahlili startap ekotizimi va investitsiya jalb qilish jarayonining institutsional omillari hamda mexanizmlarini chuqur yoritadi. Brown va Mason (2017) startap ekotizimlarini "spiky" tizimlar sifatida tanqidiy tahlil qiladi — ya'ni yagona model barcha hududlarda bir xil natija bermaydi, balki mamlakatning institutsional xususiyatlari, tarmoq aloqalari va iqtisodiy sharoitlariga qarab farqlanadi. Bu yondashuv startap investitsiyalari samaradorligini baholashda hududiy va institutsional kontekstni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Venchur kapitalning innovatsiyaga ta'siri klassik empirik tadqiqotlardan boshlangan bo'lib, Kortum va Lerner (2000) tadqiqotida venchur kapital investitsiyalarining ixtisoslashgan sektorlarning patentlash faolligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi empirik dalillar bilan tasdiqlangan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, innovativ startaplar uchun sarmoya nafaqat moliyaviy resurs, balki strategik boshqaruv va tajriba almashish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Rocha va boshqalar (2022) maqolasida ekotizimni o'lchash metodologiyasi taklif etilib, startap ekotizimi samaradorligini tahlil qiluvchi indikatorlar, tarmoq aloqalarining sifati va investorlar uchun axborot shaffofligini o'lchash asosiy ko'rsatkichlar sifatida keltirilgan. Bu metodologik yondashuv O'zbekiston sharoitida investitsiya jalb qilish jarayonidagi institutsional omillarni aniqlash uchun ham mos kelib, indikatorlar orqali muammoni tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Ziakis va boshqalar (2022) maqolasida startap ekotizimi uchun konseptual model taklif etilib, unda davlat siyosati, moliyaviy institutlar, axborot infratuzilmasi va bilim resurslari kabi omillar o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv investitsiya jarayonining ko'p omilli va murakkab tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Mahalliy OAK maqolalarida O'zbekiston sharoitidagi innovatsion muhit va venchur kapitalni qo'llab-quvvatlash jarayonlari ham tahlil qilingan. Chulliyev (2024) maqolasida innovatsion tadbirkorlik va venchur fondlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mahalliy kontekstda ko'rib chiqiladi, bu esa institutlarning investitsiya oqimidagi rolini yoritadi. Yana bir maqolada venchur kapitali shakllanishining nazariy-ilmiy asoslari hamda milliy bozor sharoitida uni tatbiq etish masalalari muhokama qilinadi.

Boshqa bir OAK maqolasida transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida venchur kapitalning innovatsion rivojlanishga ta'siri tahlil qilinib, startap investitsiyalarining samaradorligini oshirish bo'yicha siyosiy tavsiyalar berilgan. Nihoyat, "Muhandislik-iqtisodiyot" jurnalidagi maqolada innovatsion startaplarni moliyalashtirishda venchur kapital mexanizmlarining amaliy jihatlari, risklar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Ushbu maqola O'zbekiston sharoitida amaliyot va institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yoritadi.

Mazkur ilmiy maqolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, startaplar uchun investitsiya jalb qilish jarayoni institutsional muhit, venchur kapital instrumentlari, ma'lumotlar shaffofligi, investorlar himoyasi hamda strategik boshqaruv mexanizmlariga tayanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu jarayonda zamonaviy metodologiyalarni qo'llash hamda institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda startap ekotizimi va investitsiya jalb qilish jarayonining institutsional omillarini o'rganishda kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini institutsional nazariya, innovatsion rivojlanish konsepsiyasi hamda venchur kapital mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tahlil jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar asosida startap ekotizimining tarkibiy elementlari va investitsiya oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi institutsional omillar aniqlashtirildi.

Shuningdek, empirik manbalar asosida venchur kapitalning innovatsion faollikka ta'siri bo'yicha mavjud ilmiy natijalar umimlashtirildi. Metodologik yondashuv startaplar uchun investitsiya jalb qilish samaradorligini baholashda institutsional barqarorlik, investorlar himoyasi, axborot shaffofligi hamda moliyaviy infratuzilmaning rolini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi.



Natijada startap ekotizimini rivojlantirish jarayonida institutlararo hamkorlikni mustahkamlash hamda venchur kapital mexanizmlarini takomillashtirish muhim omil ekanligi asoslab berildi.

Mazkur tadqiqotda startap ekotizimi va investitsiya jalb qilish jarayoni institutsional yondashuv asosida tahlil qilindi. Institutsional nazariyaga ko'ra, iqtisodiy jarayonlar, jumladan, investitsiya oqimi faqat moliyaviy resurslar mavjudligi bilan emas, balki huquqiy, tashkiliy va axborot institutlarining samaradorligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, startap ekotizimining rivojlanish darajasi mamlakatdagi institutsional muhit sifati bilan bevosita bog'liqdir.

Global Startup Ecosystem Index 2025 ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston ilk bor global Top-100 ro'yxatiga kirib, 98-o'rinni egallagan. Hisobotda mamlakat startap ekotizimi 132 foizlik o'sish sur'ati bilan eng tez rivojlanayotgan hududlardan biri sifatida qayd etilgan. Institutsional yondashuv nuqtai nazaridan bu natija normativ-huquqiy islohotlar, innovatsion infratuzilmaning shakllanishi hamda investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan izohlanadi.

Startup Genome 2025 hisobotiga ko'ra, 2020-yilda O'zbekistonda startap investitsiyalari hajmi taxminan 0,3 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 69,5 mln AQSh dollariga yetgan. Bu o'sish oddiy statistik ko'rsatkichdan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'lib, institutsional barqarorlikning mustahkamlanib borayotganini anglatadi. Kapital oqimining ko'payishi investorlarning milliy ekotizimga nisbatan ishonchi ortib borayotganini ham ko'rsatadi.

Institutsional tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya jalb qilish jarayoniga quyidagi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda:

Birinchiidan, huquqiy muhit.

Startap faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza investorlar uchun xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shartnomaviy majburiyatlarning aniq belgilanishi, aksiyadorlik ulushini rasmiylashtirish mexanizmlarining mavjudligi hamda investorlar huquqlarini himoya qilish tizimi investitsion qarorlar qabul qilinishini tezlashtiradi.

Ikkinchiidan, moliyaviy infratuzilma.

Startup Genome ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 12 dan ortiq faol venchur kapital fondlari mavjud bo'lib, ularning umumiy aktivlari 136 mln AQSh dollaridan oshgan. Bu startaplar uchun muqobil moliyalashtirish manbalarining shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Bank kreditlari yuqori riskli innovatsion loyihalar uchun har doim ham mos instrument bo'lavermagan sharoitda venchur kapital institutsional mexanizm sifatida muhim rol o'ynamoqda.

Uchinchidan, axborot shaffofligi va ekotizim integratsiyasi.

Startaplar va investorlar o'rtasidagi axborot almashinuvi qanchalik ochiq va tizimli bo'lsa, investitsiya jarayoni shunchalik samarali amalga oshadi. Reytinglar, ochiq ma'lumotlar bazalari va xalqaro hisobotlar investorlar uchun muhim ishonch omili vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, davlatning qo'llab-quvvatlovchi roli.

Innovatsion infratuzilma (texnoparklar, inkubatorlar, akseleratorlar) hamda soliq imtiyozlari startap muhitini rag'batlantiradi. Institutsional nazariya nuqtai nazaridan davlatning roli bevosita investitsiya kiritishda emas, balki xavflarni kamaytiruvchi va bozor mexanizmlarini qo'llab-quvvatlovchi institutsional tizim yaratishda namoyon bo'ladi.

Quyidagi jadval institutsional omillar hamda ularning investitsiya jarayoniga ta'sirini tizimli ko'rinishda aks ettiradi.

1-jadval. Startap ekotizimida institutsional omillar va ularning investitsiya jalb qilishga ta'siri¹

Institutsional omil	Mazmuni	Investitsiya jarayoniga ta'siri
Huquqiy muhit	Startap va investor faoliyatini tartibga soluvchi normativ baza	Investitsion risk kamayadi
Moliyaviy infratuzilma	Venchur kapital va muqobil moliyalashtirish mexanizmlarining shakllanishi	Kapital oqimi ortadi
Axborot shaffofligi	Global reyting va ochiq ma'lumotlar	Investor ishonchi oshadi
Davlat qo'llovi	IT Park, soliq imtiyozlari	Ekotizim barqarorlashadi

Shunday qilib, metodologiyada belgilangan institutsional yondashuv asosida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston startap ekotizimining o'sishi moliyaviy resurslar ko'payishidan ko'ra ko'proq institutsional mexanizmlarning takomillashuvi bilan bog'liqdir. Investitsiya hajmining o'sishi huquqiy, moliyaviy va axborot institutlari o'rtasidagi uyg'unlik kuchayganini tasdiqlaydi.

¹ Muallif ishlanmasi, ¹⁶ va ¹⁷ manbalar asosida tuzilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayoni asosan institutsional omillar bilan belgilanmoqda. O'tkazilgan institutsional tahlil startaplar rivojlanishi va kapital oqimi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, normativ-huquqiy barqarorlik, innovatsion infratuzilma hamda axborot shaffofligi investitsiya jarayonining faollashuviga xizmat qilmoqda.

Birinchi natija shundan iboratki, startap ekotizimining xalqaro reytinglarda qayd etilishi investorlar ishonchini oshiruvchi muhim signal vazifasini bajaradi. Global hisobotlarda O'zbekistonning Top-100 ro'yxatiga kirgani mamlakatning innovatsion muhitiga nisbatan tashqi bahoning yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa institutsional legitimatsiya effekti orqali investitsiya oqimini rag'batlantiradi. Institutsional nazariyaga ko'ra, tashqi tan olinishi (external validation) kapital oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi natija — moliyaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich shakllanishi investitsiya jarayonini tizimlashtirmoqda. Venchur kapital mexanizmlarining paydo bo'lishi startaplar uchun an'anaviy bank kreditlaridan farqli ravishda riskka asoslangan moliyalashtirish imkonini yaratmoqda. Biroq o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, venchur kapital bozori hali to'liq integratsiyalashgan tizim darajasiga yetmagan. Xususan, "exit" mexanizmlari (IPO yoki strategik sotuv) amaliyotining yetarli darajada rivojlanmaganligi investorlarning uzoq muddatli strategiyalarini cheklashi mumkin.

Uchinchi natija — axborot shaffofligining investitsiya jalb qilish samaradorligiga bevosita ta'siridir. Startaplar faoliyati haqida ochiq ma'lumotlarning mavjudligi investorlar uchun risklarni baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq ma'lumotlar bazalarining markazlashtirilmaganligi hamda moliyaviy hisobotlarning yetarli darajada standartlashtirilmaganligi ekotizim samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Munozarali jihatlardan biri davlatning roli qanchalik faol bo'lishi kerakligi masalasidir. Bir tomondan, davlat tomonidan yaratilgan infratuzilma va rag'batlantirish mexanizmlari startap muhitini faollashtiradi. Ikkinchi tomondan, haddan tashqari davlat aralashuvi bozor mexanizmlarining erkin rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xorijiy tajribalar (masalan, Estoniya va Isroil modeli) shuni ko'rsatadiki, davlatning roli ko'proq katalizator vazifasini bajarishi lozim, ya'ni bevosita investor sifatida emas, balki qulay muhit yaratuvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi samaraliroqdir.

Shuningdek, institutsional tahlil natijalariga ko'ra, startap ekotizimi elementlari o'rtasidagi integratsiya darajasi investitsiya samaradorligining muhim sharti hisoblanadi. Agar universitetlar, innovatsion markazlar, venchur fondlar va davlat organlari o'rtasida tizimli hamkorlik mavjud bo'lsa, kapital oqimi barqarorlashadi. Aks holda, ekotizim elementlari o'rtasidagi fragmentatsiya investitsiya jarayonining sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash;
- venchur kapital bozorini chuqurlashtirish;
- startaplar uchun chiqish strategiyalarini rivojlantirish;
- axborot shaffofligini oshirish va hisobot standartlarini joriy etish;
- ekotizim aktorlari o'rtasidagi koordinatsiyani kuchaytirish.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari startap investitsiyalari samaradorligi bevosita institutsional muhit sifati bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Investitsiya jalb qilish jarayoni kompleks tizim bo'lib, u huquqiy, moliyaviy va axborot institutlarining uyg'un faoliyat yuritishini talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayonining institutsional muammolarini kompleks tahlil qilishga qaratildi. O'tkazilgan institutsional yondashuv asosidagi tahlil shuni ko'rsatdiki, startaplar rivojlanishi va kapital oqimi hajmi bevosita huquqiy barqarorlik, moliyaviy infratuzilmaning rivojlanish darajasi, axborot shaffofligi hamda davlatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati bilan bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy institutsional omillar quyidagicha tizimlashtirildi: birinchidan, venchur kapital bozorining hali to'liq chuqur integratsiyalashmaganligi va "exit" mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi; ikkinchidan, investitsiya risklarini baholash va boshqarish instrumentlarining yanada takomillashtirilishi zarurligi; uchinchidan, startaplarni baholash bo'yicha yagona metodologik standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligi; to'rtinchidan, ekotizim aktorlari o'rtasidagi koordinatsiya darajasini yanada kuchaytirish zarurligi.

Shu bilan birga, tadqiqot O'zbekiston startap ekotizimida ijobiy institutsional siljishlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xalqaro reytinglarda mamlakatning qayd etilishi, innovatsion infratuzilmaning shakllanishi hamda



moliyaviy mexanizmlarning kengayishi investitsiya jarayonining tizimlashib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon investorlar ishonchining ortishi va kapital oqimining bosqichma-bosqich faollashuviga zamin yaratmoqda.

Tadqiqot asosida investitsiya jalb qilish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi mexanizmlar taklif etiladi: venchur kapital bozorini chuqurlashtirish va xususiy investorlar faolligini rag'batlantirish; startaplar uchun samarali chiqish strategiyalarini (IPO, strategik sotuv, ikkilamchi bozor mexanizmlari) rivojlantirish; investorlar huquqlarini himoya qilish institutlarini mustahkamlash; axborot shaffofligini oshirish va hisobot standartlarini joriy etish; universitetlar, innovatsion markazlar va moliyaviy institutlar o'rtasida tizimli hamkorlikni kuchaytirish.

Umuman olganda, startap ekotizimida investitsiya jalb qilish jarayoni murakkab institutsional tizim bo'lib, uning barqarorligi huquqiy, moliyaviy va axborot institutlarining uyg'un faoliyatiga bog'liqdir. Mazkur tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonova, N.U. (2023) Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirish. PhD dissertation abstract. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
2. Bektemirov, A.B., Ruzibayeva, N.X. and Azimova, R.I. (2020) Investitsiya va innovatsiyalar. Toshkent. Available at: <https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/%D0%98%D0%BD%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%B8%D1%86%D0%B8%D1%8F%20%D0%B2%D0%B0%20%D0%B8%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F%D0%BB%D0%B0%D1%80.pdf> (Accessed: 20 February 2026).
3. Bozorova, O. (2025) 'Innovatsion startaplarni moliyalashtirishda venchur kapitali', Muhandislik-Iqtisodiyot. <https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal/article/view/653>
4. Brown, R. and Mason, C. (2017) 'Looking inside the spiky bits: a critical review and conceptualisation of entrepreneurial ecosystems', Small Business Economics, 49(1), pp. 11–30. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11187-017-9865-7>
5. Chuliyev, S.R. (2024a) 'Innovatsion tadbirkorlik va venchur fondlarni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/download/525/562/599>
6. Chuliyev, S.R. (2024b) 'Venchur kapitali shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Available at: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/download/588/614/652> (Accessed: 20 February 2026).
7. Chuliyev, S.R. (2025) 'Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida venchur kapitali', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Available at: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/download/119/125/127> (Accessed: 20 February 2026).
8. Glavanits, J. (2012) Legal Aspects of Venture Capital Financing. PhD thesis. Széchenyi István University.
9. IT Park Uzbekistan (2025) Uzbekistan enters the Global Top-100 in the Global Startup Ecosystem Index 2025 for the first time. Available at: <https://www.it-park.uz/en/itpark/news/uzbekistan-enters-the-global-top-100-in-the-global-startup-ecosystem-index-2025-for-the-first-time> (Accessed: 18 February 2026).
10. Kortum, S. and Lerner, J. (2000) 'Assessing the contribution of venture capital to innovation', The RAND Journal of Economics, 31(4), pp. 674–692. Available at: <https://web.mit.edu/rqibbons/www/venture.capital.pdf> (Accessed: 20 February 2026).
11. Mukhammadkodir, E. (2023). Mamlakatimizdagi raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tahlili. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 314-321.
12. North, D.C. (1990) Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press. doi:10.1017/CBO9780511808678.
13. Pairsuwan, R. (2023) The Roles of Science and Technology Park in the Entrepreneurial Ecosystem. PhD thesis.
14. Rocha, A., Martínez, R. et al. (2022) 'Capturing conversations in entrepreneurial ecosystems', Research Policy. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0048733322001871> (Accessed: 20 February 2026).
15. Ro'ziyeva, D.I. (2023) Kichik biznes subyektlari investitsiya faoliyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish. DSc dissertation abstract. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
16. Startup Genome (2025) Global Startup Ecosystem Report 2025: Uzbekistan – Central Asia's fastest rising startup ecosystem. Available at: <https://startupgenome.com/report/gser2025/uzbekistan-central-asias-fastest-rising-startup-ecosystem> (Accessed: 18 February 2026).
17. O'zbekiston Respublikasi (2020) Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida. O'RBQ–630-son, 24-iyul. Toshkent: Lex.uz.
18. Ziakis, C., Vlachopoulou, M. et al. (2022) 'StUpEco: A conceptual framework for startup ecosystems', Technological Forecasting and Social Change. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0040162522002771> (Accessed: 20 February 2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>